

О‘ЗБЕКИСТОН ВА RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA PEDAGOG-O‘QITUVCHILARNING KASBIY MALAKASINI OSHIRISHNING QIYOSIY TAHLILI

Abdusabirov Jamshid Azizjon o‘g‘li

*A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy
rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy-tadqiqot instituti magistranti
Telefon raqami: +998946527218*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КВАЛИФИКАЦИИ УЧИТЕЛЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ И РАЗВИТЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Абдусабиров Джамшид Азизжон угли

Магистрант национального научно-исследовательского
института повышения квалификации педагогов
и обучения новым методам имени А.Авлони

COMPARATIVE ANALYSIS OF PROFESSIONAL QUALIFICATION IMPROVEMENT OF TEACHERS IN UZBEKISTAN AND DEVELOPED FOREIGN COUNTRIES

Abdusabirov Jamshid Azizjan ugli

The national research institute for professional
development of pedagogues and training
in new methods named after A. Avloni

Annotatsiya: Har bir sohada faoliyat olib boradigan xodim o‘zining malakasini doimo oshirishga intiladi. Pedagoglar o‘z sohasida yangi ko‘nikmalarga ega bo‘lgan holda, dunyoda yuz berayotgan o‘zgarishlar va pedagogika sohasidagi innovatsiyalardan bahramand bo‘lib turadi. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim tizmining yuqori samaradorlikka erishishiga yordam beradi. Pedagoglarning malakasini doimiy ravishda oshirib borish tizimini yanada yaxshilash va soddalashtirish ushbu maqsadni amalga oshirishning asosiy kaliti bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: pedagoglar, malaka oshirish, ta‘lim tizimi, kasbiy rivojlanish, samaradorlik

Abstract. An employee in every field of activity strives to constantly improve his qualifications. Educators, having acquired new skills in their field, will be aware of the changes taking place in the world and innovations in the field of pedagogy. This, in turn, helps the education system achieve high efficiency. Further

improvement and simplification of the system of continuous teacher training remains the main key to achieving this goal.

Key words: teachers, advanced training, education system, professional development, efficiency

Аннотация. Сотрудник в каждой сфере деятельности стремится постоянно совершенствовать свою квалификацию. Педагоги, приобретая новые навыки в своей области, будут в курсе об изменениях, происходящим в мире, и инновациях в области педагогики. Это, в свою очередь, помогает системе образования достичь высокой эффективности. Дальнейшее совершенствование и упрощение системы непрерывной подготовки учителей остается главным ключом к реализации этой цели.

Ключевые слова: педагоги, повышение квалификации, система образования, профессиональное развитие, эффективность

Kundan kunga rivojlanib borayotgan hozirgi bir zamonda, hamma joyda rivojlanish, taraqqiyot, oldinga qarab intilib borish degan tushunchalar hammamiz uchun odatiy soʻzlarga aylanib qoldi. Dunyoda mavjud boʻlgan barcha sohalarda har kun, har soatda oʻzgarishlar yuz bermoqda. Bugun yangilik koʻringan narsa ertasi kuni yangilik boʻlmay qolmoqda. Bu shuni koʻrsatadiki, raqobatga toʻla bu dunyoda, doimo rivojlanib borish, oʻz ustida ishlash, faqat oldinga qarab intilish, dunyo xabarlaridan xabardor boʻlib turish, zamon bilan hamnafas boʻlib yashash zamon talabi boʻlib qolmoqda.

Pedagogika sohasini eng muhim fundamental sohalaridan hisoblangani bois, unda rivojlanish boʻlishi uchun hamma ishlar va harakatlar olib borilmoqda. Pedagoglarning malakasini oshirish, ularning doimiy ravishda kasbiy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish va ushbu malaka oshirish tizimining qay darajada samarali tuzilganligi ushbu jarayonning qay darajada samara berishini va qay darajada natija olib kelishini belgilab beradi.

Malaka oshirish tushunchasi juda ham keng tarzda talqin qilinishi mumkin. Hammamizga maʼlumki, har bir pedagog ushbu kasbni egallash uchun juda ham uzoq va mashaqqatli yoʻlni bosib oʻtadi. Bu bosib oʻtilgan yoʻl ularni faoliyat olib borayotgan kasbida yuqori choʻqqiga erishishiga olib keladi. Hozirda zamon har daqiqada oʻzgarib borayotganini hisobga oladigan boʻlsak, ularning yanada yangi bilim va koʻnikmalarga muntazam ravishda oʻrganib borishi bu zamon talabi hisoblanadi.

Pedagoglarning ishi, ularning kasblari eng muhim va katta masʼuliyat talab etadigan kasblar qatoriga kiradi. Boʻlajak kadrlarning qay darajada yetishib chiqishi, qay darajada bilim, koʻnikma va makakalarga ega boʻlgan holda yetishib chiqishi aynan pedagog va oʻqituvchilarning kasbiy kompetensiyasiga bogʻliq boʻladi. Bejizga

yurtimizda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi va kasbiy malakasiga katta e'tibor qaratilmaydi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi.

Nafaqat O'zbekiston balki dunyoda istalgan mamlakat davlatning kelajagi yoshlarning qo'lida ekanligini, yoshlarning kelajagi esa pedagoglarning qo'lida ekanligini juda ham yaxshi tushunadi. Shuning uchun dunyo davlatlari va ular qatori O'zbekiston ham ta'lim sohasiga juda ham katta miqdorda davlat budjetidan mablag' ajratadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.01.2022 yildagi 25-sonli qaroriga muvofiq "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" nizomi qabul qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning ikkinchi bob 13-moddasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish haqida alohida ta'kidlab o'tilgan.

Pedagoglar haqida gap ketar ekan, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, 01.02.2024 yildagi O'RQ-901-sonli "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonuni yurtimizda pedagoglarning qay darajada qadrlanishini va ularga ko'rsatilayotgan e'tiborni yaqqol ko'rsatib berdi. Unga ko'ra pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi. Ta'lim tizimida ishlayotgan pedagogning kasbiy darajasiga doir talablar Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorida hamda pedagogning kasbiy standartlarida belgilanadi. Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilishi mumkin.

Shuningdek, ushbu qonunda pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida to'xtalib o'tilgan. Unga ko'ra pedagoglarni qayta tayyorlash ularga qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash hamda o'zining tayanch mutaxassisligi va kasbiga muvofiq mehnat faoliyatini olib borish imkoniyatini berish maqsadida amalga oshiriladi. Pedagoglar malakasini oshirish ularga o'z kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilab borish, shuningdek toifasini (lavozimini) oshirish imkoniyatini berish maqsadida amalga oshiriladi.

Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir faoliyat kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ta'lim tashkilotlari (institut, markaz, fakultet va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi. Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari hamda muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida

pedagog o'zining kasbiy fanlaridan tashqari qo'shimcha fanlarni (chet tilini, axborot texnologiyalarini, ijtimoiy-gumanitar fanlarni va boshqalarni) ixtiyoriy ravishda o'zlashtirishi mumkin.

O'quv rejasi va o'quv dasturi o'zgarganda (yangi fan kiritilganda yoki mavjud fan chiqarib tashlanganda) davlat ta'lim tashkilotlarining pedagoglarini yangi turdosh fan bo'yicha qayta tayyorlash O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Davlat ta'lim tashkilotlari pedagoglarining malakasini belgilangan muddatlarda va hajmda oshirish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi. Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagoglarining malakasini oshirish ish beruvchi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.01.2022 yildagi 25-sonli qaroriga muvofiq "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" nizomiga muvofiq **xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish** —shaxs kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o'sishi jarayoni hisoblanadi. **Qayta tayyorlash** (malaka oshirish) **kursi** — qayta tayyorlash (malaka oshirish)ning tasdiqlangan o'quv rejasi va dasturlari asosida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar tizimidir. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug'ullanadigan nodavlat ta'lim tashkilotlari reyestri —xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini o'z ichiga olgan elektron axborot tizimidir.

Har bir pedagog o'zining hech kimning uslubiga o'xshash bo'lmagan uslubiga ega. Bir joyda tahsil olgan 30 ta pedagogni oladigan bo'lsak, ular hammasi tarix yo'nalishi bo'yicha tahsil olishgan. Ularning hammasi bir xil metodika bo'yicha, bir xil bilimlar bo'yicha ta'lim olishgan. Lekin ularning hammasi oliy o'quv yurtini bitirib chiqqanidan so'ng, o'z fani bo'yicha 30 xil metodika bo'yicha o'quvchilarga ta'lim berishadi. Bu insonning tabiatida mavjud narsa hisoblanadi. Har bir insonning o'z qarashlari, o'z usullari, o'z qobiliyatlari mavjud. Inson shundan kelib chiqqan holda oldida turgan vazifaga yondashadi.

Shuningdek, pedagog doim ham bir xil tarzda dars o'tishda davom etishi kerak emas. Bir xillik tinglovchilarda zerikish hissini uyg'otadi va bu esa o'z navbatida ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dars o'tish jarayoniga rang baranglik kiritgan holda, tinglovchilarning diqqatini jalb eta oladigan metodikalardan foydalanish orqali pedagog doimiy ravishda ularning diqqatini o'ziga jalb etib turishga erisha oladi. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy bir davrda oddiy eskirgan metodlar bilan o'quvchilarning diqqatini ushlab turish juda ham qiyin hisoblanadi. Har kuni dunyoda yetakchi pedagoglar, professorlar tomonidan pedagogika hamda ta'lim sohasini yanada kuchaytirib beradigan va samarasiga yanada samara qo'shadigan

yangidan-yangi innovatsion yangiliklar yaratilmoqda. Dunyoda yaratilayotgan innovatsiyalar va sodir bo'layotgan o'zgarishlardan doimiy ravishda xabardor bo'lib turish bu har bir o'z ustida doimiy ishlaydigan va o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashadigan pedagogning burchi va vazifasi hisoblanadi.

Pedagogning majburiyatlariga shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish, o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazish, o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanish, hamda ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmaslik, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borish, o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tish, ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga va pedagogik etika qoidalariga rioya etish kabi majburiyatlar kiradi.

Pedagoglarning malakasini doimiy ravishda oshirib borish nafaqat O'zbekistonda balki chet el davlatlarida ham asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ta'lim sohasi orqali har qanday istalgan davlatning asosiy fundamenti quriladi. Har qanday davlat o'z yoshlariga kelajak davomchilari sifatida qarar ekan, demak ularning bilim ko'nikma va malakalarini yetarli darajada qilib qo'yish ham aynan davlatning zimmasiga yuklatiladi.

Malaka oshirish tizimi yildan yilga takomillashib bormoqda. Hammamizga ma'lumki hozirgi davrda hech narsa uzoq vaqt davomida o'zgarishsiz qolishi mumkin emas. Har qanday narsa zamon talabidan kelib chiqqan holda o'zgarishlarga uchrashi tabiiy hol hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida faqat foydaga ishlaydi va tizimning avvalgi holatidan yanada yaxshiroq holatga o'zgarishiga yordam beradi. Dunyoda sodir bo'layotgan har qanday o'zgarishlar, innovatsion metodlar, innovatsiyalar va yangiliklar avvalambor, dunyo tajribasini o'rganib chiqqan holda, ushbu mavzuda amalga oshirilgan ishlarni ko'zdan kechirib chiqib ularni tahlil qilgan holda, afzalliklari va zaif tomonlarini aniqlab chiqqan holda, hamda ushbu hamma jarayonni to'plagan holda o'rganilayotgan tizim uchun umumiy har tomonlama mukammal bo'ladigan yechimni ishlab chiqarish orqali amalga oshiriladi.

Masalan, Yaponiya maktablarida mavjud bo'lgan malaka oshirishning majburiy tizimiga qaramay, bu yerda o'qituvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashi rag'batlantiriladi. Kechki sinflarga qatnaydigan yoki o'z tashabbusi bilan sirtqi bo'limda o'qiyotganlarga

oylik ish haqining 1/10 qismiga teng miqdorda nafaqa to'lanadi. Darhaqiqat, bunday mukofot bilan jamiyat manfaati uchun mehnat alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo yapon o'qituvchisining ish kuni ba'zan 13-14 soatga yetadi.

Qancha ko'p davlatlarning ta'lim tizimida pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha jahon tajribalari o'rganib chiqilar ekan, ushbu tizimda mukammal dastur ishlab chiqish uchun imkoniyat yanada oshadi. Ta'lim tizimi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadigan davlatlar ushbu maqomga shunchaki chiqib qolmagani hammamizga ayondir. Ular ushbu sohada yaxshigina yutuq va tajribalarga ega hisoblanadi. Shuning uchun yetakchi davlat tajribalarini o'rganib, tahlil qilib chiqqan holda, yaxshilab ko'rib chiqish lozim. Hozirda dunyo shiddat bilan kundan-kunga o'zgarib bormoqda. Ushbu zamonning talablariga mos ravishda faoliyat olib borish juda ham muhim hisoblanadi va asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Pedagogning malakasini oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Lekin hamma narsaning qiyichiligi bo'lgani kabi, buni ham amalga oshirish jarayonida muammolarga duch kelish mumkin. Ularni to'g'ri bartaraf etgan holda, aniq va mukammal, hamda maqsadli tizimga ega bo'lgan holda oldinga qarab harakat qilishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida ushbu jarayonning samaradorligi va natijaviyligini oshirish uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogning malakasi deganda biz keng tushunchaga ega ta'rifni tushunamiz. Bu so'z aynan bir ta'rif bilan cheklanib qolmaydi. Pedagog nafaqat o'z sohasida sodir bo'layotgan yangiliklarni, balki boshqa jihatlar bo'yicha ham yuqori pog'onada bo'lishi lozim. Pedagogning bilim, malaka va ko'nikmalari uning kasbiy kompetentligini tashkil qiladi. Pedagoglar har bir pedagog egallashi lozim bo'lgan talablarga ega bo'lishi, ularga qo'yilgan hamma talablarga mos kelishi va o'zida mavjud bo'lgan kompetensiyani yanada yuqori darajaga chiqarish uchun doimiy harakatda bo'lishi lozim.

Shuningdek, moliyaning yetishmasligi cheklangan byudjetlar malaka oshirish dasturlari uchun yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmasligi, o'qitish uchun resurslar va materiallarning yetarli emasligi, shuningdek, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishning imkoni yo'qligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, o'qituvchilarning past motivatsiyasi ularning har doim ham kasbiy rivojlanish dasturlarida ishtirok etishning haqiqiy afzalliklarini targ'ib qilishmaydi. Buning sababi moliyaviy rag'batlantirishning yetishmasligi, tan olinishi yoki martaba o'sishi bo'lishi mumkin.

Individual yondashuvning kamchiligiga keladigan bo'lsak, universal dasturlar o'qituvchilarning individual ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olmasligi mumkin. Bu o'qitish samaradorligini pasaytiradi, chunki o'qituvchilar zarur bilim va ko'nikmalarni olmasligi mumkin. Shuningdek, amaliy qo'llash imkoniyatlari ham cheklangan. Olingan bilim va ko'nikmalar darhol amaliyotda qo'llanilishi muhim

ahamiyatga ega. Biroq, ayrim hollarda, o'qituvchilar qo'llab-quvvatlanmaganligi yoki mos shart-sharoit tufayli o'quv jarayoniga yangi usul va texnologiyalarni darhol joriy eta olmaydi.

Vaqtning yetishmasligi ham muammo bo'lishi mumkin. O'qituvchilar ko'pincha joriy mas'uliyat bilan to'lib-toshgan va qo'shimcha o'quv dasturlarida qatnashishga vaqtlari bo'lmasligi mumkin. Bu, ayniqsa, yuqori ish vaqtida va kadrlar yetishmasligi sharoitiga to'g'ri keladi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish uchun ushbu muammolarni hisobga olish va ularni isloh qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, rag'batlantiruvchi muhit yaratish va dasturlarni o'qituvchilarning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirish orqali hal etishga intilish muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilarning malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish va ishtirok etish motivatsiyasini oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Malaka oshirish dasturlarida ishtirok etish va yangi ko'nikmalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ish haqini oshirish, hamda kasbiy rivojlanish va o'quv jarayoniga yangi usullarni joriy etishdagi yutuqlar uchun bonuslar va mukofotlar joriy etish lozim. Shuningdek, ta'lim uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali o'qituvchilarning gavjum jadvalini hisobga oladigan, ish va o'qishni uyg'unlashtirishga imkon beruvchi moslashuvchan o'quv jadvali yaratish lozim. Onlayn kurslar va vebinarlarni o'z ichiga olgan sifatli resurslar va zamonaviy o'quv materiallariga ega bo'lishga imkoniyat yaratib berish lozim.

Yana eng muhim jihatlardan biri shuki, o'qituvchilar o'rtasida muntazam ravishda so'rovnomalar va so'rovlar o'tkazish, ularning ehtiyojlari va malaka oshirish dasturlaridan qoniqish darajasini aniqlash kerak. Bu orqali esa dasturlarga keyingi tuzatishlar kiritish bilan ta'lim natijalarini monitoring qilish va baholash imkoni paydo bo'ladi. Ushbu strategiyalarni kompleks qo'llash o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

O'quv dasturlariga o'qituvchilar o'z ishlarida qo'llashi mumkin bo'lgan ko'proq amaliy mashg'ulotlar, holatlar va keyslarni kiritish, boshqa maktab va ta'lim muassasalari bilan amaliyot o'tash va tajriba almashishni tashkil etish orqali ham pedagoglarda malaka oshirish jarayonini yanada samarador o'tishiga katta qadam tashlagan bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagoglarning malakasini oshirish ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy elementi hisoblanadi. Ta'lim standartlari, texnologiyalari va o'qitishga yondashuvlarning jadal o'zgarishi sharoitida o'qituvchilarning malakasini oshirish yuqori sifatli ta'limni ta'minlash va raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlashning zarur shartiga aylanib bormoqda. Malaka oshirish tizimidagi dolzarb muammo va muammolar, masalan, moliyalashtirishning yetishmasligi, o'qituvchilarning motivatsiyasining pastligi, eskirgan dastur va uslublar ularni hal

etishda kompleks yondashuvni taqozo etmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qitish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, o'qituvchilarga individual yondashish va rag'batlantirish malaka oshirish dasturlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish bo'yicha asosiy tavsiyalar quyidagilardan iborat: o'qituvchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish va shaxsiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish; turli xil o'quv formatlari, jumladan, onlayn kurslar, vebinarlar, amaliy mashg'ulotlar va amaliyotlar; o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni bevosita qo'llash imkoniyati bilan dasturlarni amaliy yo'naltirish; mentorlik, murabbiylik va tajriba almashish orqali qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish; ta'lim samaradorligi va interaktivligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi pedagog kadrlar malakasini oshirishning samarali va dinamik tizimini yaratish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirishga, zamonaviy talablarga moslashishga va muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib boshirishga tayyor bo'lgan bitiruvchilarni tayyorlashga zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.01.2022 yildagi 25-sonli "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori
3. O'RQ-901-sonli "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun
4. Quchqorova Nargiza Mamajonovna "Pedagog kasbiy kompetentligi va kreativlik" "Bookmany print" Toshkent-2022